



## **XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI Q A R O R I**

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: [sirdaryo@exat.uz](mailto:sirdaryo@exat.uz)

2023 - yil 18 - iyul

VI-52-84-9-0-K/23

Sirdaryo viloyati hokimligi

### **Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha Jamoat komissiyasining 2022-yildagi faoliyati yakunlari va 2023-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 6-maydagi 192-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2023-yil 14-apreldagi 3084-IV/KQ-485-IV-sonli qo'shma qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha Jamoat komissiyasi hisoboti rahbarlik uchun qabul qilinsin.
2. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha Jamoat komissiyasi va Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi tomonidan o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar hisoboti qoniqarli deb topilsin.
3. Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha Jamoat komissiyasi raisi P.Axmedjanova, Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi direktori Sh.Bobojonovga:

kelgusida e'lon qilinadigan grant tanlovlarini ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mavzularda bo'lishiga alohida e'tibor qaratish;

davlat tashkilotlari tomonidan ta'lim, ilm-fan, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport sohalarida muayyan natijaga erishish;

aholining salomatligini muhofaza qilish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish;

atrof-muhitni muhofaza qilish;

yoshlar siyosati va bolalar tashabbuslarini, aholining ijtimoiy zaif qatlamlarini hamda bolalar va ko'p bolali oilalarni qo'llab-quvvatlash;

aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish;

tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha ijtimoiy buyurtmalar takliflarini batafsil o'rganib, ushbu takliflar asosida ijtimoiy buyurtmalar tanlovini e'lon qilish choralarini ko'rish;

grant va ijtimoiy buyurtmalar tanlovlari g'oliblari tomonidan bajarilgani ishlar monitoringini amalga oshirish va ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish;

viloyatdagi davlat tashkilotlari boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimliklar huzuridagi Jamoatchilik kengashlari tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning ahvolini tahlil qilib, komissiya yig'ilishlarida ko'rib borilishini yo'lga qo'yish;

Jamoat komissiyasi qaroriga asosan 2020-2021-yillar davomida e'lon qilingan davlat granti va ijtimoiy buyurtma tanlovlarida g'olib deb topilgan va moliyalashtirilgan loyihalar bo'yicha joriy yilning iyul oyida tegishli mas'ul tashkilotlar tomonidan nazorat tekshiruvlari tashkil etilsin.

Ushbu nazorat tekshirishlari asosida aniqlangan ilg'or tajribalarni ommalashtirish, faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilmagan nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokida davlat granti va ijtimoiy buyurtmalar tanlovlarida ishtirok etish shartlari bo'yicha manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda seminar-treninglar tashkil qilish va ularni faoliyatini jonlantirish choralarini ko'rish;

grant, ijtimoiy buyurtmalar va davlat subsidiyasi sifatida ajratilgan mablag'larning samarali sarflanishi va natijadorligini doimiy monitoring qilib borish vazifalari yuklatilsin.

3. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha Jamoat komissiyasining yangi tarkibi 1-ilovaga muvofiq, Xalq deputatlari

viloyat Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha Jamoat komissiyasining reglamenti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat teleradiokompaniyasi (Z.Darxonov), "Yangi Sirdaryo"-*"Новая Сырдарья"* gazetalari tahririyati (M.Ismoilov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha Jamoat komissiyasi raisi P.Axmedjanova zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**A.Mahmudaliyev**

Xalq deputatlari Sirdaryo  
viloyat Kengashining  
2023-yil 18-iyuldagi  
VI-52-84-9-0-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo‘yicha Jamoat komissiyasi a‘zolariga tavsiya etilayotgan nomzodlar**

**R O‘ Y X A T I**

<b>№</b>	<b>Komissiya a‘zolarining F.I.Sh.</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>	<b>Komissiyadagi lavozimi</b>
1.	Axmedjanova Pokiza Shavkatovna	“H.Xudoyberdiyeva” nomidagi ijod maktabi direktori	Jamoat komissiyasi raisi
2.	Muminov Irkin Akmalovich	Viloyat hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo‘yicha o‘rinbosari	Jamoat komissiyasi raisining o‘rinbosari
3.	Sulaymonov Mirza To‘rayevich	Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputati	Jamoat komissiyasi a‘zosi
4.	Abdiyev Utbasar Rustamovich	Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputati	Jamoat komissiyasi a‘zosi
5.	Umerova Dilfuza Abduraximovna	Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputati	Jamoat komissiyasi a‘zosi
6.	Begiyev Olimjon Tojiboyevich	Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputati	Jamoat komissiyasi a‘zosi
7.	Soatov Norbobo Xoliyarovich	Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi deputati	Jamoat komissiyasi a‘zosi
8.	Sattorov Salohiddin Ulug‘bekovich	Viloyat Adliya boshqarmasi boshlig‘i	Jamoat komissiyasi a‘zosi
9.	Mamadaminov Ulmasjon Yarmaxamatovich	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i	Jamoat komissiyasi a‘zosi
10.	Kushakov Faxriddin Baxtiyarovich	Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i	Jamoat komissiyasi a‘zosi
11.	Xakimov Xurshid Anvarovich	Viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i	Jamoat komissiyasi a‘zosi
12.	Sirojiddinov Maqsudbek Botirjon o‘g‘li	Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i	Jamoat komissiyasi a‘zosi
13.	Darxonov Zafar Kobilovich	Viloyat teleradiokompaniyasi direktori	Jamoat komissiyasi a‘zosi
14.	Ismoilov Muhammad Rahmonqulovich	“Yangi Sirdaryo” gazetasi tahririyati bosh muharriri	Jamoat komissiyasi a‘zosi
15.	Tursunmurodov Rustambek Permatovich	O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi viloyat Kengashi raisi	Jamoat komissiyasi a‘zosi
16.	Mamarahimov Shavkat O‘rolovich	Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi viloyat bo‘limi rahbari	Jamoat komissiyasi a‘zosi
17.	Abdullayeva Dilshunos Atxamovna	“Yuksalish” umummilliy harakati viloyat hududiy bo‘linmasi rahbari	Jamoat komissiyasi kotibi

18.	Hayitov Murodjon Sherbekovich	Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari	Jamoat komissiyasi a'zosi
19.	Imomqulov Ulug'bek Ochilovich	Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti viloyat Kengashi raisi	Jamoat komissiyasi a'zosi

Xalq deputatlari Sirdaryo  
viloyat Kengashining  
2023-yil 18-iyuldagi  
VI-52-84-9-0-K/23-son qaroriga  
2-ilova

## **Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha Jamoat komissiyasining**

### **NAMUNAVIY REGLAMENTI**

#### **I. Umumiy qoidalar**

1. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha Jamoat komissiyasining namunaviy reglamenti (bundan buyon matnda - Namunaviy reglament deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlariga Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Ijtimoiy sheriklik bo'yicha Jamoat komissiyasi (bundan buyon matnda - Jamoat komissiyasi deb yuritiladi) faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

2. Jamoat komissiyasi bir vaqtning o'zida Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondlarining (bundan buyon matnda - Jamoat fondlari deb yuritiladi) vasiylik Kengashlari vazifalarini bajaradi, Jamoat fondlarining ustuvor yo'nalishlarini shakllantiradi, Jamoat fondlari tashkil etilgan taqdirda, ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

3. Jamoat komissiyasi o'z faoliyatini amaldagi qonun hujjatlariga va ushbu Namunaviy reglamentga muvofiq amalga oshiradi.

#### **II. Jamoat komissiyasining vakolatlari**

4. Jamoat komissiyasi:

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlar hamda loyihalarni amalga oshirishdagi hamkorligini chuqurlashtirishga ko'maklashadi, ularning takliflarini o'rganish asosida ijtimoiy sheriklikning ustuvor yo'nalishlarini aniqlaydi;

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini joylarda ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy masalalarni hal etishga qaratilgan sotsial hamda ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlari va loyihalarini qo'llab-quvvatlashga, ularni amalga oshirish uchun mablag'larning zarur hajmlarini aniqlashga doir tavsiyalar ishlab chiqadi hamda tegishli buyurtmalarni Parlament komissiyasiga yuboradi;

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash Jamoat fondi mablag‘larining samarali taqsimlanishini tashkil etadi, shuningdek ulardan maqsadli foydalanilishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

tegishli hududda ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini hal etishda ijtimoiy sheriklik holatining monitoringini va baholanishini amalga oshiradi, zarur hollarda, mazkur yo‘nalishdagi ishlarni takomillashtirishga doir aniq tadbirlarni ishlab chiqadi;

ijtimoiy sheriklik subyektlari o‘rtasida manfaatlarni kelishib olishga va birgalikdagi faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan maslahatlashuvlar hamda muzokaralarni tashkil etadi va o‘tkazadi, ular o‘rtasida bitimlar va shartnomalar tuzishga, shuningdek ularning ijro etilishiga ko‘maklashadi;

ijtimoiy sheriklik sohasida ko‘rib chiqilayotgan masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qiladi va bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

o‘z faoliyati to‘g‘risida jamoatchilikni xabardor qiladi.

Jamoat komissiyasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

5. Jamoat komissiyasi:

Xalq deputatlari viloyat Kengashiga bajarilgan ishlari to‘g‘risida har yilgi hisobotni taqdim etishi;

ijtimoiy sheriklik sohasidagi dasturlar va loyihalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarishi;

ijtimoiy sheriklik doirasidagi faoliyatni amalga oshirish chog‘ida fuqarolarning manfaatlarini va ehtiyojlarini hisobga olishi;

ijtimoiy sheriklik doirasida taqdim etilgan pul mablag‘laridan va boshqa mol mulkdan maqsadli foydalanilishini ta‘minlashi shart.

Jamoat komissiyasining zimmasida amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

### **III. Jamoat komissiyasining tuzilmasi va ularni boshqarish**

6. Jamoat komissiyasi tegishincha xalq deputatlari viloyat Kengashining deputatlari, viloyat hokimligining, adliya va moliya organlarining, shuningdek

boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari orasidan rais, rais o‘rinbosari, mas’ul kotib va komissiya a‘zolaridan iborat tartibda tuziladi.

7. Jamoat komissiyasining raisi:

Jamoat komissiyasi majlislarini chaqiradi, ularga raislik qiladi;

Jamoat komissiyasini ish rejasi loyihasini tayyorlanishini tashkil etadi va Jamoat komissiyasining tasdiqlangan ish rejasi bajarilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

Jamoat komissiyasi qarorlarini imzolaydi va ularning ijro etilishiga doir ishlarni tashkil etadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

8. Rais o‘rinbosari Jamoat komissiyasi raisining yo‘qligida uning vazifalarini bajarib turadi, Jamoat komissiyasi tomonidan belgilanadigan boshqa vazifalarni bajaradi.

9. Jamoat komissiyasining mas’ul kotibi Jamoat komissiyasi majlislarini tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshiradi, Jamoat komissiyasi majlislarining bayonnomalarini yuritadi, Jamoat komissiyasi tomonidan belgilanadigan vazifalarni bajaradi.

10. Jamoat komissiyasining tarkibi tegishincha Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari bilan tasdiqlanadi.

11. Jamoat komissiyasining tarkibini o‘zgartirish Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari bilan amalga oshiriladi.

Jamoat komissiyasi, Xalq deputatlari viloyat Kengashiga tegishincha Jamoat komissiyasining raisini, rais o‘rinbosarini, mas’ul kotibini, ayrim a‘zolarini muddatidan ilgari vazifasidan ozod etish to‘g‘risidagi masalani Jamoat komissiyasi a‘zolari umumiy sonining uchdan ikki qismi talabiga binoan kiritishi mumkin.

12. Jamoat komissiyasining raisi, rais o‘rinbosari, mas’ul kotibi va a‘zolari o‘z vazifalarini jamoatchilik asosida bajaradi.

Jamoat komissiyasi raisi, rais o‘rinbosari, mas’ul kotibining va a‘zolarining o‘z vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq xarajatlarining o‘rni ularning asosiy ish joyidagi mablag‘lar hisobidan qoplanadi.

13. Jamoat komissiyasi qo‘yilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun ishchi



va ekspert guruhlarini tuzishi mumkin. Bu guruhlarning faoliyati Jamoat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida amalga oshiriladi. Yoʻnalishlar boʻyicha ushbu guruhlarini tuzishda ishga jalb etilayotgan ekspertlarning kasbiy va hayotiy tajribasiga hisobga olinadi.

#### **IV. Jamoat komissiyasining ish tartibi**

14. Jamoat komissiyasi faoliyatining tashkiliy shakli ularning majlislaridir.

Jamoat komissiyasining majlislari, qoida tariqasida, har chorakda kamida ikki marta oʻtkaziladi.

15. Jamoat komissiyasining majlislari rais tashabbusi bilan, u yoʻqligida esa Jamoat komissiyasi raisining oʻrinbosari tomonidan chaqiriladi.

16. Jamoat komissiyasining navbatdan tashqari majlislari rais tashabbusi bilan, shuningdek Jamoat komissiyasi aʼzolari yoxud Jamoat fondi Taftish komissiyasi aʼzolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismining yozma talabiga binoan chaqiriladi.

17. Jamoat komissiyasining masʼul kotibi Jamoat komissiyasi aʼzolarini qoida tariqasida, Jamoat komissiyasi majlisi kunidan kamida ikki kun avval xabardor qiladi.

Jamoat komissiyasining aʼzosi majlisda ishtirok etish imkoniyati boʻlmagan taqdirda Jamoat komissiyasi raisiga bu haqda oldindan xabar qilishi shart.

18. Jamoat komissiyasi majlisining kun tartibiga qoʻshiladigan masalalar Jamoat komissiyasining raisi, rais oʻrinbosari, masʼul kotibi va aʼzolari tomonidan, shuningdek Jamoat fondi Ijro etuvchi devoni rahbari tomonidan kiritilishi mumkin.

19. Jamoat komissiyasi majlislari, agar ularda Jamoat komissiyasi aʼzolarining kamida yarmi hozir boʻlsa, vakolatlidir.

20. Jamoat komissiyasining majlislari ochiq oʻtkaziladi. Zarurat boʻlganda Jamoat komissiyasi yopiq majlis oʻtkazish toʻgʻrisida qaror qabul qilishi mumkin.

21. Jamoat komissiyasining majlislarini Jamoat komissiyasi raisi yoki uning oʻrinbosari olib boradi.

22. Majlislarga davlat organlarining, korxonalarining, muassasalarning, tashkilotlarning, nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organlarining, ommaviy axborot vositalarining vakillari va boshqa shaxslar taklif etilishi mumkin.

Majlis taklif etilgan shaxslar muhokama etilayotgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilinishida ovoz berish huquqiga ega emas, shuningdek raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunishi shart.

Majlisga taklif etiladigan shaxslarning son va tarkibi Jamoat komissiyasi raisi tomonidan hal qilinadi.

Majlisda raislik qiluvchi Jamoat komissiyasi a'zolariga majlisga taklif etilgan shaxslarning soni va tartibi to'g'risida axborot beradi.

23. Jamoat komissiyasi majlisida masalalarni ko'rib chiqish va muhokama qilish jarayoni masalani tayyorlash uchun mas'ul bo'lgan Jamoat komissiyasi a'zolarining ma'ruzalarini va qo'shimcha ma'ruzalarni, shuningdek Jamoat komissiyasi raisi tomonidan masalani tayyorlash uchun mas'ul sifatida belgilangan boshqa shaxslarning ma'ruzalarini va qo'shimcha ma'ruzalarni eshitish shaklida amalga oshiriladi.

Jamoat komissiyasi majlisida qarorlar uning majlisida ishtirok etayotgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamoat komissiyasining har bir a'zosi bir ovozga ega bo'ladi va muhokama etilayotgan masala bo'yicha "tarafdor", "qarshi", yoki "betaraf" bo'lib ovoz beradi. Jamoat komissiyasi majlisida hozir bo'lgan Jamoat komissiyasining har bir a'zosi muhokama etilayotgan masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etishi shart.

Jamoat komissiyasining ovoz berish vaqtida ishtirok etmagan a'zolari ovoz berish huquqini Jamoat komissiyasining boshqa a'zolariga topshirishi mumkin emas.

24. Jamoat komissiyasining majlisida mas'ul kotib tomonidan majlis bayonnomasi yuritiladi. Bayonnomada:

majlis o'tkazilgan vaqt, sana va joy;

Jamoat komissiyasining hozir bo'lgan va ishtirok etmayotgan a'zolari soni, shuningdek taklif etilgan shaxslarning soni;

majlisda ko'rib chiqilayotgan, muhokama etilayotgan masalalarning mazmun-mohiyati, majlis ko'rib chiqish uchun kiritilgan har bir masala bo'yicha ma'ruzachi va qo'shimcha ma'ruzachining familiyasi va lavozimi;

qabul qilingan qarorlarning "tarafdor", "qarshi", yoki "betaraf" ovozlar soni qayd etilgan ro'yxati ko'rsatiladi.

Jamoat komissiyasining bayonnomalarini mas'ul kotib imzolaydi, majlisda raislik qilgan rais yoki rais o'rinbosari tasdiqlaydi.

25. Jamoat komissiyasining qarorlari qabul qilingan kundan e'tiboran uch kun muddatda Jamoat komissiyasi a'zolariga va Jamoat fondi Ijro etuvchi devoniga yuboriladi.

26. Jamoat komissiyasining qarorlari Jamoat komissiyasining barcha a'zolari va Jamoat fondi Ijro etuvchi devoni ijro etishi uchun majburiydir.

#### **IV. Yakunlovchi qoidalar**

27. Jamoat komissiyasi faoliyatining tashkiliy, texnik ta'minotini mahalliy davlat hokimiyati organlari amalga oshiradi.

28. Jamoat komissiyasi faoliyatiga uslubiy jihatdan rahbarlik qilish Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi tomonidan ta'minlanadi.